




**XORAZM VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI**



**XORAZM VILOYATINING
SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**

*2023- YIL YANVAR-FEVRAL
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar-fevral oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-fevral oyida viloyat korxonalari tomonidan 2 834,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 97,6 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelgan va uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 94,5 %ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 12,4 %ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 18,6 %ga kamayishi kuzatildi, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 61,3 %ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimining 71,8 %ga o'sishi kuzatildi,

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,2 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,008 %ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd so'm

Yanvar-fevral

FHI,% da



2023- yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 680,0 mlrd so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 94,5 %ini tashkil etdi.

2022- yil yanvar-fevral


96,5 %

2023- yil yanvar-fevral

94,5 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,04 %ni (2022- yilning yanvar-fevral oyida – 0,04 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 36,0 %ni (2022- yilning yanvar-fevral oyida – 39,2%), o'rta-quyi texnologiyali – 2,9 % (2022- yilning yanvar-fevral oyida – 2,4 %) va quyi texnologiyalisi – 55,6 % (2022- yilning yanvar-fevral oyida – 54,9%)ni tashkil etdi.

■ 2023- yil ■ 2022- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 37,1 % (2022- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 89,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (2022- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 85,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 27,1 % (2022-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 91,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,7 % (2022- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 96,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,4 % (2022- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 107,8 %)ni, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 1,1 % (2022- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 59,8 %)ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da *

Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxtadan yigirilgan ip




Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)



Maxsus yengil avtomobillar





2023- yilning yanvar-fevral oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 22 592,3 tonna (2022- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 40,8 % ga oshgan), paxta chigiti 37 879,7 tonna (2022- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 4,5 % ga kamaygan), 6 267,7 tonna paxtadan yigirilgan ip (33,0 % oshgan), 9 436 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillarsiz) (1,6 % oshgan), 3 501 dona maxsus yengil avtomobil (5,9 % ga kamaygan), o'simlik yog'i 1 848,9 tonna (49,6 % kamaygan) hamda 12 798,7 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (8,6 % kamaygan) ishlab chiqarilish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz),dona	9283	9436	153
Maxsus yengil avtomobillar, dona	3720	3501	-219
Paxtadan yigirilgan ip,tonna	5153,0	6267,7	1114,7
Paxta tolasi,tonna	11573,6	22592,3	11018,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	13999,0	12798,7	-1200,3
O'simlik yog'i (tozalangan), tonna	3669,7	1848,9	-1820,8


Yanvar-fevral, yirik korxonalar bo'yicha

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,7 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-fevral oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,0 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 83,8 % va ishlab chiqarish hajmi 642,6 mlrd so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati




2021- yil yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 93,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-fevral oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,8 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 35,2 %ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 154,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


2021- yil yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 125,5 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,6 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 90,7 %ni, ishlab chiqarish hajmi 713,9 mlrd so'mni tashkil etdi.




Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,4 %ni, uning fizik hajm indeksi esa 158,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-fevral oyiga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 %ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 16,4 %ni va ishlab chiqarish hajmi 18,4 mlrd so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yil yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,02 %ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 97,9 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oyida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,04 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 34,0 %ni va ishlab chiqarish hajmi 1,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-fevral oyida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 112,3 %ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 %ni, fizik hajm indeksi 113,2 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 8,2 mlrd so'mni tashkil etdi.




Elektr uskunalar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-fevral oyi yakuniga ko'ra, elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 85,9 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 %ni, fizik hajm indeksi 123,4 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 9,4 mlrd so'mni tashkil etdi.



Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish




2021- yil yanvar-fevral oyida boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 58,6 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 %ni, fizik hajm indeksi 39,5 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 12,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-fevral oyida avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 37,6 %ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 101,4 %.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-fevral oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 37,1 %ni, fizik hajm indeksi 89,2 %ni hamda ishlab chiqarish hajmi 994,8 mlrd so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 136,5 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,8 %ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-fevral oyida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 61,3 %ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln kVt.s	21,3	323,7	302,4
Issqlik energiyasi, ming gkal	31,4	47,5	16,1
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	332902,0	213864,0	-119038

Yanvar-fevral, yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17,8 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-fevral	2023- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	1076847,0	906192,0	-170655,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	18578045,0	17798799,0	779246,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm</i>	3458880,0	2777415,0	-681465

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 4,4 %ga oshganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 15,8%ga, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 19,7%ga kamayganligi kuzatildi.

Yanvar-fevral, yirik korxonalar bo'yicha

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 586,0 mlrd so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 106,7 %ni, uning jami sanoatdagi ulushi 56,0 %ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-fevral

42,8%

2023- yil
yanvar-fevral

45,1%

Nooziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-fevral

57,2%

2023- yil
yanvar-fevral





54,9%

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 64,7 %ni, Urganch shahrida 15,9 %ni va Xonqa tumanida 4,5 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (106,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida (149,3 %), Xiva shahrida (111,1 %), Xonqa tumanida (126,9 %), Hazorasp tumanida (130,1%), Gurlan tumanida (145,1%), Qo'shko'pir tumanida (110,1%) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 64,7 %ni, Urganch shahrida 15,9 %ni va Xonqa tumanida 4,5 %ni tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 82,6 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 6,3 %ni, Xiva shahrida 1,8 %ni tashkil etdi.

850,5


mlrd so'm

2022-yil yanvar-fevral

870,4


mlrd so'm

2023-yil yanvar-fevral




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi

54,9%



117,8%

2022- yil



102,3%

2023- yil






Xorazm viloyati	102,3	870,4
Urganch shahri	111,7	54,8
Xiva shahri	111,7	15,8
Bog'ot tumani	83,2	3,5
Gurlan tumani	126,6	6,8
Qo'shko'pir tumani	108,6	7,2
Urganch tumani	135,1	19,3
Hazorasp tumani	156,2	7,6
Tuproqqal'a tumani	101,0	719,2
Xonqa tumani	156,3	17,6
Xiva tumani	59,8	5,2
Shovot tumani	108,4	3,6
Yangiariq tumani	48,1	6,3
Yangibozor tumani	93,7	3,5

o'sish sur'ati

mlrd so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib 43,1 %ni, shuningdek, Urganch shahrida 27,3 %ni, Xonqa tumanida 7,5 %ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd so'm

Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqal'a tumaniga to'g'ri kelib, 47,9%, shuningdek, Urganch shahrida 14,3 %ni, Shovot tumanida 5,1 %ni, Xonqa tumanida 5,0 %ni, Yangiariq tumanida 5,1%ni tashkil etdi.

Xorazm viloyati


2022- yil yanvar-fevral
2 380,9 mlrd so'm

2023- yil yanvar-fevral
2 834,5 mlrd so'm



2022- yil 116,5 %

2023- yil 97,6 %



FHI, % da

mlrd so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (23 696,7 ming so'm), Urganch shahrida (2 734,0 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 460,2 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.



ming so'm
o'sish sur'ati

Xorazm viloyati

2022- yil

yanvar-fevral

1 247,4 ming so'm

2023- yil

yanvar-fevral

1 460,2 ming so'm



114,7 %


2022- yil

96,0 %

2023- yil

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 441,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 15,6 %ni tashkil etdi.



Xorazm viloyati

2022- yil

yanvar-fevral

291,3 mlrd soʻm

2023- yil

yanvar-fevral

441,3 mlrd soʻm



16,2 %

2022- yil

15,6 %

2023- yil

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 817,4 ming so'm bo'lgani holda, Tuproqqal'a tumanida 17 939,7 ming so'mni, Urganch shahrida 1 698,3 ming so'mni tashkil etdi.

Xorazm viloyati

2022- yil yanvar-fevral

778,9 ming so'm

2023- yil yanvar-fevral

817,4 ming so'm



2022- yil

116,2 %

2023- yil

104,9 %

Xorazm viloyati	104,9	817,4
Urganch shahri	146,8	1 698,3
Xiva shahri	109,0	302,9
Bog'ot tumani	99,3	153,4
Gurlan tumani	142,7	195,6
Qo'shko'pir tumani	108,5	93,0
Urganch tumani	98,3	222,7
Hazorasp tumani	128,4	81,6
Tuproqqal'a tumani	95,5	17 939,7
Xonqa tumani	124,7	366,3
Xiva tumani	92,0	103,7
Shovot tumani	125,6	151,5
Yangiariq tumani	72,9	138,5
Yangibozor tumani	105,2	153,8

ming so'm

o'sish sur'ati

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 126 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 819 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 19,8 %) Urganch shahriga, 446 tasi (10,8 %) Urganch tumaniga, 359 tasi (8,7 %) Qo'shko'pir tumaniga, 365 tasi (8,8 %) Xonqa tumaniga va 335 tasi (8,1 %) Xiva shahriga to'g'ri kelmoqda.

